IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 22 Issue 01 IYUN 2026

TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLAR BILAN ISHLASH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH USULLARI (“XALQ BANKI” MISOLIDA)

Bozorova Ruxsora Fayozovna

O‘zbekiston Respublikasi

Bank-moliya akademiyasi magistranti

bozorovaruxsora91@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishlash amaliyotini takomillashtirish masalalari “Xalq banki” misolida tahlil qilinadi. Maqolada O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2025–2026-yillardagi so‘nggi statistik ma’lumotlari, Xalq bankining strategik tashabbuslari hamda xalqaro amaliyotdagi NPL boshqaruvi tamoyillari asosida muammoli kreditlarni kamaytirish yo‘nalishlari ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: muammoli kreditlar, NPL, kredit portfeli, kredit riski, Xalq banki, monitoring, soft-collection, hard-collection, garov, IFRS 9.

Abstract. This article examines ways to improve the practice of managing non-performing loans in commercial banks using Xalq Bank as a case study. It analyzes recent data from the Central Bank of Uzbekistan, the bank’s strategic initiatives, and international approaches to NPL management.

Keywords: non-performing loans, NPL, loan portfolio, credit risk, Xalq Bank, monitoring, collection, collateral, IFRS 9.

KIRISH

Bank tizimining barqarorligi ko‘p jihatdan tijorat banklari kredit portfelining sifati va muammoli kreditlar ulushiga bog‘liq. Kreditlar iqtisodiyotni moliyalashtirishning asosiy manbai bo‘lsa-da, qarz oluvchilarning to‘lov intizomi pasayishi, biznes-rejalarning bajarilmasligi, garov ta’minotining yetarli emasligi va makroiqtisodiy o‘zgarishlar muammoli kreditlar ko‘payishiga olib kelishi mumkin.

Muammoli kreditlar bank likvidligi, rentabelligi va kapital yetarliligiga bevosita ta’sir qiladi. Shu sababli ularni faqat sud orqali undirish bilan cheklanish yetarli emas; kredit ajratishdan oldingi tahlil, kreditdan foydalanish monitoringi, erta ogohlantirish indikatorlari, qayta tuzish, garovni boshqarish va inkasso jarayonlari yagona tizim sifatida yo‘lga qo‘yilishi lozim.

Xalq banki yirik davlat ulushi mavjud banklardan biri bo‘lib, aholiga, kichik biznesga hamda ijtimoiy dasturlar doirasidagi mijozlarga xizmat ko‘rsatadi. Bu bankda kredit portfelining hajmi katta bo‘lgani uchun muammoli kreditlar bilan ishlash amaliyotini takomillashtirish bank moliyaviy barqarorligi bilan birga real sektorni moliyalashtirish imkoniyatiga ham ta’sir ko‘rsatadi.

Adabiyotlar sharhi

Tijorat banklarida kredit portfeli riskini boshqarish masalalari mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Xalqaro amaliyotda kredit riskini boshqarish bank faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilib, uning samaradorligi bankning moliyaviy barqarorligi va daromadliligiga bevosita ta'sir ko‘rsatishi ta'kidlanadi.

F. S. Mishkin o‘z tadqiqotlarida bank tizimining barqaror rivojlanishida kredit risklarini to‘g‘ri baholash va samarali monitoring qilish muhim omil ekanligini asoslab bergan. Muallif

kredit portfeli sifatini oshirish uchun qarz oluvchilarning moliyaviy holatini chuqur tahlil qilish, kredit siyosatini takomillashtirish hamda risklarni diversifikatsiya qilish zarurligini qayd etadi.

P. S. Rose va S. C. Hudgins bank menejmentiga bag‘ishlangan ilmiy ishlarida kredit portfelini boshqarishda aktivlar sifati, kreditlash standartlari hamda kredit monitoringi bank rentabelligiga sezilarli ta'sir ko‘rsatishini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, muammoli kreditlar ulushining oshishi bank kapitalining yetarliligiga salbiy ta'sir qiladi.

A. Saunders va L. Allen kredit risklarini boshqarishda zamonaviy skoring tizimlari, statistik modellar hamda raqamli texnologiyalarni qo‘llashning afzalliklarini ilmiy jihatdan asoslab berganlar. Ularning tadqiqotlarida kredit portfelini doimiy monitoring qilish va stress-testlardan foydalanish risklarni kamaytirishning muhim vositasi sifatida baholanadi.

J. C. Hull moliyaviy institutlarda risklarni boshqarish bo‘yicha ilmiy izlanishlarida kredit risklarini bozor va likvidlik risklari bilan uzviy bog‘liq holda baholash zarurligini ta'kidlaydi. Muallif risklarni kompleks boshqarish banklarning uzoq muddatli barqaror rivojlanishiga xizmat qilishini asoslaydi.

H. van Greuning va S. B. Bratanovic bank risklarini tahlil qilish bo‘yicha olib borgan tadqiqotlarida kredit portfeli sifatini baholashda korporativ boshqaruv, ichki nazorat tizimi hamda risk-menejment mexanizmlarining ahamiyatini alohida ko‘rsatib o‘tganlar.

O‘zbekiston Respublikasida ham kredit risklarini boshqarish masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklarida kredit risklarini boshqarish, aktivlar sifatini tasniflash, ehtimoliy yo‘qotishlar uchun zaxiralar shakllantirish hamda xalqaro standartlarni bosqichma-bosqich joriy etish bo‘yicha qator me'yoriy hujjatlar qabul qilingan. So‘nggi yillarda bank tizimini raqamlashtirish, kredit ajratish jarayonlarini avtomatlashtirish va kredit monitoringini kuchaytirish kredit portfeli sifatini yaxshilashga xizmat qilmoqda.

Yuqoridagi ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kredit portfeli riskini samarali boshqarish uchun risklarni erta aniqlash, kredit portfelini diversifikatsiya qilish, zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish hamda xalqaro standartlar asosida risk-menejment tizimini takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada aynan ushbu yo‘nalishlar bo‘yicha tijorat banklarining amaliyoti tahlil qilinib, kredit portfeli sifatini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

Asosiy va taxliliy qism

Xalqaro amaliyotda NPL (Non-Performing Loans – muammoli kreditlar) boshqaruvi muammoli qarzlarni kechikkanidan keyin undirish emas, balki butun kredit hayoti davomida riskni boshqarish jarayoni sifatida qaraladi. Basel qo‘mitasining kredit riskini boshqarish tamoyillarida banklar kredit risk muhitini shakllantirish, kredit berish jarayonini sog‘lom tashkil etish, kreditlarni ma’muriy yuritish va monitoring qilish hamda nazorat mexanizmlarini kuchaytirishi zarurligi ko‘rsatiladi.

Yevropa bank boshqaruvi amaliyotida ham NPL ulushi yuqori bo‘lgan banklar uchun alohida NPL strategiyasi, boshqaruv organlari mas’uliyati, segmentlar bo‘yicha undirish rejasi, forbearance choralarini tartibga solish va garovlarni real baholash asosiy talablar qatoriga kiritilgan. Bu yondashuv O‘zbekiston banklari uchun ham amaliy ahamiyatga ega.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston bank tizimida kredit portfeli hajmi sezilarli darajada kengaydi. Kreditlashning o‘sishi bilan bir qatorda kredit portfeli sifatini nazorat qilish va muammoli kreditlar ulushini maqbul darajada ushlab turish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Markaziy bank ma'lumotlariga ko‘ra, tijorat banklarida kredit risklarini boshqarish tizimi bosqichma-bosqich takomillashtirilayotgan bo‘lsa-da, ayrim banklarda muammoli kreditlar ulushi o‘rtacha darajadan yuqori bo‘lib qolmoqda.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, muammoli kreditlarning yuzaga kelishiga asosan qarz oluvchilarning moliyaviy holatining yomonlashuvi, garov ta'minotining yetarli darajada

baholanmasligi, kredit monitoringining sustligi hamda makroiqtisodiy omillarning salbiy ta'siri sabab bo‘lmoqda.

Bundan tashqari, banklarda kredit portfelining ayrim iqtisodiyot tarmoqlarida yuqori darajada jamlanishi konsentratsiya riskini oshirmoqda. Bu holat iqtisodiyotning muayyan tarmog‘ida yuzaga keladigan salbiy o‘zgarishlarning bank kredit portfeli sifatiga bevosita ta'sir etishiga sabab bo‘ladi. Shu bois kredit portfelini tarmoqlar, hududlar va mijozlar toifalari bo‘yicha diversifikatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, sun'iy intellekt asosidagi skoring tizimlari, "Early Warning System" (erta ogohlantirish tizimi), IFRS 9 asosida kutilayotgan kredit yo‘qotishlarini baholash hamda muntazam stress-testlarni qo‘llash muammoli kreditlar ulushini kamaytirishda yuqori samara bermoqda. O‘zbekiston tijorat banklarida ham ushbu mexanizmlarni keng joriy etish kredit portfeli sifatini yaxshilash, risklarni erta aniqlash va banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash imkonini beradi.

Shunday qilib, amalga oshirilgan tahlillar kredit portfeli riskini samarali boshqarish nafaqat muammoli kreditlarni kamaytirishga, balki bank kapitalining barqarorligini ta'minlash, likvidlikni mustahkamlash va bank tizimining investitsion jozibadorligini oshirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi.

1-jadval


Xalq banki kredit portfeli va muammoli kreditlari dinamikasi

Sana	**Jami kreditlar, mlrd so‘m**	**NPL, mlrd so‘m**	**NPL ulushi**	**Izoh**
01.01.2025	29 620	1 253	4,2%	2024-yil yakunida NPL darajasi bank tizimiga yaqinlashgan
01.05.2025	29 861	1 206	4,0%	Muammoli kreditlar hajmi biroz kamaygan
01.10.2025	31 508	1 136	3,6%	Kredit portfeli o‘sgan, NPL ulushi pasaygan
01.01.2026	33 600	1 032	3,1%	Yil boshida NPL ulushi sezilarli qisqargan
01.06.2026	37 080	1 756	4,7%	So‘nggi holatda NPL ulushi qayta oshgan

Manba: *O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining bank statistikasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.*

Jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, Xalq bankida NPL ulushi 2025-yil boshidagi 4,2 foizdan 2026-yil boshida 3,1 foizgacha pasaygan. Biroq 2026-yil 1-iyun holatiga kelib muammoli kreditlar 1 756 mlrd so‘mga, NPL ulushi esa 4,7 foizga yetgan. Bu holat muammoli

kreditlar bilan ishlash bo‘yicha mavjud tizimni yanada tezkor, raqamli va segmentlarga ajratilgan shaklda takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.



1-rasm. Xalq banki va bank tizimida NPL ulushi dinamikasi.

Manba: *O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki statistikasi asosida muallif tomonidan shakllantirildi.*

Markaziy bank ma’lumotlariga ko‘ra, 2026-yil 1-iyun holatiga bank tizimi bo‘yicha jami kreditlar 635 978 mlrd so‘mni, muammoli kreditlar 23 609 mlrd so‘mni, NPL ulushi esa 3,7 foizni tashkil etgan. Xalq bankida shu sanada jami kreditlar 37 080 mlrd so‘m, muammoli kreditlar 1 756 mlrd so‘m va NPL ulushi 4,7 foiz bo‘lgan. Demak, Xalq bankining NPL ko‘rsatkichi umumiy bank tizimi o‘rtacha darajasidan yuqoriroq shakllangan.

Xalq banki 2024-yil biznes rejasi va strategik tashabbuslarida NPL hisobotlarini avtomatlashtirish, soft-collection tizimini joriy etish, mijozlarga SMS-xabar va call-center orqali eslatmalar yuborish, CRM, biznes-analitika, Field Collection mobil ilovasi hamda hard-collection jarayonlarini rivojlantirish kabi yo‘nalishlarni belgilagan. Ushbu tashabbuslar muammoli kreditlarning oldini olish va undirish samaradorligini oshirish uchun muhim asos yaratadi.

Muammoli kreditlar bilan ishlashning eng samarali usuli kredit kechiktirilgandan keyin emas, balki kredit berishdan oldingi bosqichda boshlanadi. Bunda qarz oluvchining real pul oqimi, kredit tarixi, soliq tushumlari, bank aylanmalari, qarz yuklamasi va biznes modelining barqarorligi chuqur tahlil qilinishi kerak.

Ikkinchi muhim yo‘nalish - erta ogohlantirish tizimini kuchaytirishdir. Mijoz hisobvarag‘i aylanmasining keskin kamayishi, foiz to‘lovlarining kechikishi, garov qiymatining pasayishi, soliq qarzdorligi va tashqi qarz yukining ortishi kabi indikatorlar avtomatik ravishda risk signaliga aylanishi lozim.

Uchinchi yo‘nalish - muammoli kreditlarni segmentlarga ajratib boshqarishdir. Masalan, 1-30 kun kechikkan kreditlar bo‘yicha yumshoq eslatma va maslahat, 31-90 kun kechikkan kreditlar bo‘yicha qayta tuzish yoki grafikni o‘zgartirish, 90 kundan ortiq kechikkan kreditlar bo‘yicha esa hard-collection, garov realizatsiyasi va sudgacha kelishuv mexanizmlari qo‘llanilishi maqsadga muvofiq.

To‘rtinchi yo‘nalish - garov ta’minotini boshqarishni takomillashtirishdir. Garov faqat kredit ajratish vaqtidagi hujjat sifatida emas, balki butun kredit muddati davomida monitoring qilinadigan aktiv sifatida baholanishi kerak. Garovning bozor qiymati, likvidligi, huquqiy holati va sug‘urtalanganligi doimiy nazorat qilinishi zarur.

Beshinchi yo‘nalish - IFRS 9 asosida kutilayotgan kredit yo‘qotishlarini to‘g‘ri baholashdir. Kreditlar Stage 1, Stage 2 va Stage 3 guruhlariga aniq ajratilsa, bank muammoli kreditlarning moliyaviy ta’sirini oldindan ko‘radi va zarur zaxiralarni shakllantiradi.

Oltinchi yo‘nalish - muammoli kreditlar bo‘yicha xodimlar motivatsiyasini natijaga bog‘lashdir. Bunda faqat undirilgan qarz summasi emas, balki mijoz bilan qonuniy va adolatli ishlash, qayta tiklangan kreditlar ulushi, sudsiz hal qilingan holatlar va yangi NPL paydo bo‘lishining oldini olish kabi ko‘rsatkichlar ham hisobga olinishi lozim.

Takliflar:

1. Xalq bankida NPL bo‘yicha yagona raqamli dashboard yaratish va unda har bir filial, segment, mahsulot turi va qarzdor bo‘yicha real vaqt rejimida risk darajasini ko‘rsatish.
2. 1-30, 31-60, 61-90 va 90 kundan ortiq kechikkan kreditlar uchun alohida ishlash algoritmlarini joriy etish.
3. Kredit ajratish jarayonida qarz oluvchining pul oqimiga asoslangan skoring modelini kuchaytirish va kredit tarixini majburiy risk omili sifatida baholash.
4. Garovlarni qayta baholash davriyligini kredit risk darajasiga bog‘lash; yuqori riskli kreditlarda garov monitoringini tezlashtirish.
5. Soft-collection va hard-collection bo‘linmalari o‘rtasida aniq vazifa taqsimoti hamda natijadorlik ko‘rsatkichlarini belgilash.
6. Qayta tuzilgan kreditlar bo‘yicha alohida monitoring ro‘yxatini yuritish va ular qayta muammoli kreditga aylanishining oldini olish.
7. Filial xodimlari uchun muammoli kreditlar, garov huquqi, muzokara olib borish va IFRS 9 bo‘yicha muntazam amaliy treninglar tashkil etish.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishlash amaliyotini takomillashtirish bankning moliyaviy barqarorligi, kapital yetarliligi va iqtisodiyotni kreditlash salohiyatini oshirishning muhim shartidir. Xalq banki misolida olib borilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, 2025-yilda NPL ulushining pasayishi ijobiy natija bo‘lgan, biroq 2026-yil 1-iyun holatidagi o‘sish kredit monitoringi va undirish tizimini yanada kuchaytirishni talab etadi.

Muammoli kreditlarni kamaytirish uchun bankda kredit ajratishdan oldingi tahlil, kreditdan keyingi monitoring, erta ogohlantirish tizimi, segmentlangan collection, garovlarni real baholash va IFRS 9 asosida zaxiralash bir-biri bilan bog‘langan yagona tizim sifatida ishlashi lozim. Ushbu takliflarni amaliyotga joriy etish Xalq bankida NPL ulushini barqaror kamaytirish va kredit portfeli sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2026). Tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL) to‘g‘risida 2026-yil 1-iyun holatiga ma’lumot.
2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2026). Tijorat banklarining kredit va depozitlari to‘g‘risida 2026-yil 1-iyun holatiga ma’lumot.
3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2026). Tijorat banklari faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari to‘g‘risida 2026-yil 1-iyun holatiga ma’lumot.
4. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2025). Tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL) to‘g‘risida 2025-yil 1-yanvar, 1-may va 1-oktabr holatiga ma’lumotlar.
5. Xalq banki. (2024). 2024-moliyaviy yil uchun biznes reja va strategik tashabbuslar.

6. Basel Committee on Banking Supervision. (2025). Principles for the management of credit risk. Bank for International Settlements.
7. European Banking Authority. (2018/2019). Guidelines on management of non-performing and forborne exposures.
8. International Accounting Standards Board. (2014). IFRS 9 Financial Instruments. London: IFRS Foundation.
9. Arhinful, R., & Radmehr, M. (2025). The impact of non-performing loans on bank growth. Journal of Risk and Financial Management, 13(3), 165.
10. Ozili, P. K. (2025). Bank non-performing loans research around the world. MPRA Paper No. 125217.